



BADIIY TASVIRIY VOSITALAR VA ULARNING NUTQDAGI AHAMIYATI

Erkinova Marxobo G‘ayrat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tasvir vositalarining ahamiyati va ularning nutqimizdagi o‘rni haqida fikrlar bildirilgan. Bundan tashqari, badiiy tasviriylar vositalar tilning ifodaliligini oshirishda juda muhim o‘rin tutadi. Ular nutqni jonlantiradi, fikrni yanada ravon va ta’sirchan ifodalashga yordam beradi. Masalan, tashbeh va istioralar nutqqa emotsional joziba bag‘ishlasa, antiteza va ironiyalar fikrga teranlik qo‘shadi. Bu vositalar orqali oddiy so‘zlar obrazli va mazmunli tus olib, tinglovchining tasavvuriga kuchli ta’sir qiladi. Shu boisdan, badiiy tasviriylar vositalarni to‘g‘ri ishlatish nafaqat adabiyotda, balki kundalik nutq madaniyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Metafora, metonimiya, sinekdoxa, nutq, tasviriylar vosita, antiteza, kinoya.

Kirish. Nutq inson tafakkurining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u orqali fikr almashish, tushunchalarni yetkazish va ta’sir o‘tkazish amalga oshiriladi. Badiiy tasviriylar vositalar esa nutqni yanada jonli, ta’sirchan va ifodali qilishga xizmat qiladi. Ular adabiy asarlarda, notiqlik san’atida, she’riyat va publitsistikada keng qo‘llanilib, so‘z san’atining o‘ziga xos jozibasini namoyon etadi.

Til-o‘zaro aloqa almashinuv vositasi bo‘lib, u nutqda voqealanadi. Voqealanish jarayonida har bir so‘zlovchi uni o‘z maqsadi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda emotsional-ekspressivlikni hosil qilish uchun tasviriylar vositalaridan foydalanishi mumkin. Ulardan o‘rinli foydalanish matn mazmunni kuchaytiradi, adresat nutqning ta’sirini orttiradi, nutqqa jo‘shqinlik baxsh etadi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo‘lmish obrazlilik(tasviriylarlik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetik vositalar”, “sintaktik figuralar”, “stilistik figuralar” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning buni tasvir, buni ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so‘z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi.

Muhokama va natijalar. O‘zbek tilida asosiy tasviriylar vositalar sifatida quyidagilar keltiriladi: metafora, sinekdoxa, metonimiya, anafora, epifora, takror, antiteza, ritorik so‘roq kabilar. Ularning ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Metafora- metaphora “ko‘chirma” demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o‘xshashligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma’no ko‘chishiga metafora deyiladi. Ko‘proq tashqi o‘xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko‘chishi narsa va hodisalar o‘rtasida nisbiy o‘xshashlikka ko‘ra bo‘ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo‘lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma’no ko‘chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun “tosh yurak” birikmasida tosh so‘zida ma’no ko‘chishi kuzatilyapti. Inson xarakteridagi, tabiatidagi qattiqqo‘llik tosh so‘zining qatig‘ligida namoyish qilinyapti.

Nom ko‘chishi: kamon qosh, qozonning qulog‘i, sarv qomat, tunuka qalpoq, samolyotning dumi, qo‘shni dala

Belgi ko‘chishi: chalkash fikr, yumshoq odam, xasis yer, quruq gap, temir intizom, achchiq haqiqat, po‘lat iroda

Harakatning ko‘chishi: fabrika o‘tirdi, kompaniya sindi, yuragi yaralandi, daraxtlar shamolda shivirlashdi, do‘stlik uzildi, suhbat qizidi, gap cho‘zildi.

O‘xshashlik asosida bir narsaning nomini ikkinchi bir narsaning nomiga ko‘chirish: Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni (gul-mashuqa)

Metafora barcha mustaqil so‘z turkumlarida yuz beradi:

Ot – shakliga ko‘ra, joylashish o‘rniga ko‘ra, yoki boshqa xususiyatlarga ko‘ra o‘xshashlik.

Arslon – hayvon: kuchli, qo‘rqmas, tishlaganini qo‘yib yubormaydi.

O‘g‘lim – arslonim. Bu gapda na shakliy, na joylashuv o‘xshashlik bor. Balki-da boshqa xususiyat (qo‘rqmas, ushlaganini uzadigan) aks ettirilgan!

Sifat – ma’no turlari o‘zaro o‘zgaradi: shirin - maza bildiruvchi; shirin so‘z-maza emas.

Ravish – bog‘lanishda o‘zgarish yuz beradi: tez - harakat belgisini bildirgay; tez odam - shaxs belgisi... va hokazo...

Metonimiya – faqat ot turkumiga oid so‘zlarda mavjud.

Sinekdoxa – faqat ot turkumiga oid so‘zlarda mavjud.

Vazifadoshlik – faqat ot turkumiga oid so‘zlarda mavjud.

Demak, otdan boshqa turkumda yuz bergan ko‘chish faqat metaforadir.

Metonimiya yunoncha “*metonymia*” – qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko‘chishi metonimiya hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir. Bunda ikki predmet o‘rtasida hech qanday o‘xshashlik bo‘lmaydi. Ular orasida doimiy bog‘lanish borligi uchun, birini aytganda ikkinchisi ham esga keladi. Badiiy tasviriy vositalar nutqni nafaqat chiroyli, balki mazmunan chuqur va ta’sirchan qiladi. Ularning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Nutq jonlanadi – oddiy ifodalarga nisbatan tasviriy vositalar bilan boyitilgan nutq jonliroq va yorqinroq eshitiladi. Tasavvur kuchayadi – obrazli ifodalar tinglovchi yoki o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi va ularning nutq mazmunini chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Emotsional ta'sir ortadi – badiiy tasviriy vositalar orqali his-tuyg‘ularni ifodalash osonlashadi, tinglovchi yoki o‘quvchiga katta ruhiy ta'sir ko‘rsatadi. Nutq esda qoladi – ifodali va obrazli gaplar uzoq esda qolishi bilan ajralib turadi. Ijodiy tafakkur rivojlanadi – bu vositalardan foydalanish insonning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi.

Notiqlik san'atini kuchaytiradi – badiiy tasviriy vositalarni mohirona qo‘llash notiqlarning ta'sir kuchini orttiradi va ularning nutqiga estetik joziba bag‘ishlaydi.

Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko‘chadi: ko‘k (rang) – ko‘k (ko‘kat), kir (iflos) – kir (yuvilmagan kiyim), yupqa, chuqur va h.k Bu bir qarashda metaforaga o‘xshaydi, ammo metaforada belgi belgiga, narsa narsaga, harakat harakatga ko‘chadi. Metonimiyada esa belgi narsaga ko‘chgan.

Bir narsaning nomi shu narsadan hosil bo‘ladigan narsaga ko‘chadi: choy (o‘simlik) – choy (ichimlik), kofe. Metonimiya metaforadan farqli o‘laroq, qo‘shnilikka asoslanadi. Agar metaforada bir xil nomdagi ikkita ob'ekt, hodisalar bir-biriga ma'lum darajada o‘xshash bo‘lishi kerak bo‘lsa, metonimiyada bir xil nom olgan ikkita narsa, hodisalar qo‘shni bo‘lishi kerak. So‘z bog‘liq bu holda, u nafaqat qo‘shni, balki biroz kengroq - bir-biri bilan chambarchas bog‘liq deb tushunish kerak.

Navbatdagi tasviriy vositalardan biri sinekdoxa bo‘lib, u yunoncha synekdoche – birgalikda anglash so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakni ifodalashni bildiradi. Masalan,

1. *Tirnoqqa zor.* Farzandga zor demoqchi. Tirnoq farzandning bir qismi.
2. *Eshikka kiring.* Uyga kiring demoqchi. Eshik uyning bir qismi.
3. *Qo‘limni kesib oldim.* Qo‘lni emas, barmoq kesib olinadi. Qo‘lning bir qismi barmoq.
4. *Jingalaksoch do‘stlarim kelishdi.*
5. *Besh qo‘l barobar emas* (barmoq).
6. *Kechgach tuz totmadim* (narsa yemaslik).
7. *Bir burda non kifoya.*
8. *Ostonam tuyoq ko‘rmagan.*
9. *Shu tuyoq bilan 6 ta og‘izni boqaman.*
10. *Uyimiz 4 tomdan keyin.*

Bundan tashqari a'zolari dagi nuqsonlar ham sinekdoxa: Kalning nimasi bor temirdan tarog‘i bor; Olim cho‘loqqa achinib qaradi.

Sinekdoxa- mazmuni butun o‘rniga bo‘lak deyilganda, birlik ko‘plik o‘rnida qo‘llangan yoki aksincha, bo‘lak o‘rnida butun, birlik o‘rnida ko‘plik qo‘llangan timsol. Badiiy nutq kommunikativ va shu bilan birga, estetik vazifani bajaradi. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan belgisi uning estetik vazifasi, obrazlilik va elspressivligidir. Bu narsa uning sintaktik qobig‘ini ham belgilaydi. Bunda umumxalq tilining boy sintaktik imkoniyatlaridan foydalanishning o‘rni va ahamiyati muhimdir.

Narsa va hodisalar o‘rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chish deyiladi.

Yuqoridagi ma’no ko‘chishlaridan faqatli ravishda ular tilimizda ko‘p emas, sanoqli. Bular:

- stolning oyog‘i;

- mashina eshigi;

- samolyot qanoti (qush va samolyotga qanot uchish uchun kerak)

- chiroq (chiqor so‘z vazifadoshlik asosida ko‘chishi uchun lampa ma’nosida kelishi kerak:

ko‘chalarda chiroq porladi → Uning so‘zlari qizning qalbiga chiroq yoqib ketdi.);

- siyoh ;

- o‘q (bunda ham o‘q o‘z ma’nosida kelsagina u vazifadoshlik: o‘q ovozi eshitildi → aravaning o‘qi chiqib ketdi.),

- qalam (avvallari parranda qanoti, endi grafitli qalam)

Metafora va vazifadoshlik o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishi hisoblanadi.

Ot +bo‘lmoq, bo‘lib = vazifadoshlikni yuzaga chiqaradi: ko‘z quloq bo‘lib, oyoq bo‘lib, tomoshabin bo‘lib, yomg‘ir bo‘lib yig‘lab onam.

Sifat, ravish, son+bo‘lib = ma’no ko‘chmagan.

Kinoya ham tasviriy vositalardan biri bo‘lib, u so‘z ma’nosini aks ma’noda qo‘llash hisoblanadi. Kinoya ifodalangan so‘z doimo qo‘shirnoqqa olinadi.

1. “Matematik” sinfdoshimning bir nozi algebrani “suv qilib ichmoqqa” yo‘lladi.

2. Bizni “homi” lardan himoya qilg‘il degan sharq xalqida piching-duo bor.

Xulosa o‘rnida ba’zi tahlillarni berishni o‘rinli deb bildik.

1. Ramazon aytib keldik eshigingizga. Bunda ramazon qo‘shig‘i bo‘lishi kerak metonimiya, *eshik-uy* sinekdoxa.

2. Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmayman. Aytmagan (odam) – metonimiya, qadr tushmaydi – metafora.

3. Ko‘ksimda qo‘rg‘oshin quyosh tig‘ida. Qo‘rg‘oshin aslida o‘q - metonimiya quyosh tig‘i – metafora.

4. Qovun palak, tarvuz palak - o‘z ma’no.

5. To‘rt egat palak ekdim - aslida urug‘ sinekdoxa.

Har bir *kalla*, har bir *bosh*,

Jaholatdan qo‘rqishi kerak.

Har bir bola har bir yosh,

Navoiyni o‘qishi kerak.

(*Sirojiddin Sayyid*)

Ushbu she’rda sinekdoxa va metonimiya juda o‘rinli qo‘llangan.

Xulosa. Badiiy tasviriy vositalar tilning ifodaliligini oshirishda, nutqning ta’sir kuchini kuchaytirishda, adabiy va notiqlik san’atini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida so‘z nafaqat ma’no, balki estetik go‘zallik ham kasb etadi. Shuning uchun har bir nutq sohibi, ayniqsa ijodkorlar, notiqlar va adabiyot ixlosmandlari badiiy tasviriy vositalarni puxta o‘zlashtirishi va ularni o‘z nutqida mohirona qo‘llashi muhimdir. Nutqning boyligi va

ta’sirchanligi uning tinglovchilarga qanchalik kuchli yetib borishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975.
2. Raxmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari (til qurilishini tizim sifatida o‘rganish masalalari). -T.: Universitet, 2007.
3. To‘xtasinova O. O‘zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T: 2007.
4. Sapayeva D.N. The structural characterization of medical synonymic terms in English (based on the scientific articles in the field of dermatoveneology). Actual problems of modern science, education and training in the region. Issue 6. 2021.
5. Shermamatova, S., & Odiljonova, M. (2023). O‘zbek va ingliz adabiyotida metaforalarning foydalanish tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 91-97.
6. Mirzayev M, Usmonov S, Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.